

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#19 (16673)
2025–yil 14–may,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925–yildan chiqa boshlagan



Foto: Xolida MUSULMON

“ZAKOVAT”


– BILIM VA TAFAKKUR MAYDONI >>> 2–bet

8–may kuni Toshkent shahridagi “Zakovat arena” majmuasida “Talabalar festivali” doirasida navbatdagi “Zakovat” intellektual o‘yini bo‘lib o‘tdi. Tadbir “Zakovat intellektual klubi” nodavlat notijorat tashkiloti, Yoshlar ishlari agentligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishga oid tashabbuslari asosida intellektual o‘yinlar, xususan, “Zakovat” bugun millionlab yoshlarni ma‘naviy–ma‘rifiy harakatga jalb etmoqda. 2022–yil 20–yanvardagi “Zakovat” intellektual o‘yini ommaviy–ma‘rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora–tadbirlar to‘g‘risidagi qaror, shuningdek, “Talabalar festivali”ni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha respublika komissiyasi bayonida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida o‘tkazilgan tadbir bu yo‘nalishdagi sa‘y–harakatlarning amaliy ifodasidir.

Toshkentdagi ta‘lim muassasalari talabalarini, o‘quvchilarni va OAV vakillarini bir joyga jamlagan musobaqa bir vaqtning o‘zida butun respublika bo‘ylab sinxron tarzda olib borildi. O‘yinlarning asosiy maqsadi yoshlarni bilim olish va kitob o‘qishga rag‘batlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, turli muammolarga ijobiy yechim topa olish hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmasini mustahkamlashdir.

MAHALLA YOSHLARI BILAN ISHLASH MODELI



YOSHLAR
YETAKCHISINING
FAOLIYATI BUNGA
YORQIN MISOL
BO‘LA OLADI

>>> 2–bet

Kelajak mahallasi Ulug‘nortumanidagi eng katta mahallalardan biri. Aholining 20 foizga yaqini 14–30 yoshda. Ular orasida mehnatkash, hunarga qiziquvchan, sport bilan shug‘ullanish istagidagi, shu bilan birga vaqtini behuda o‘tkazayotgan yoshlar ham bor edi... Nega “bor edi” deyapmiz? Chunki mahalladagi yoshlar yetakchisi Xalilillo Ergashevning mehnati bilan bugun manzara o‘zgardi.

YOSHLAR BILAN ISHLASHDAGI MUAMMOLAR



ULARNI O‘Z
VAQTIDA HAL
ETIB BORISH
FAOLIYATIMIZ
SAMARADORLIGINI
OSHIRADI

>>> 2–bet

Yoshlar – har qaysi mamlatning ertangi kelajagi, taraqqiyot ustuni. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida o‘nlab qaror va farmonlar asosida yoshlarning ta‘limi, kasb–hunar egallashi, bandligi va ijtimoiy himoyasiga oid keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Amaliyotda kuzatilayotgan muammolar o‘z vaqtida bartaraf etilib, ta‘sirchan choralar ko‘rilmoqda. Shu o‘rinda Jizzax viloyati misolida ko‘rinib turibdiki, sohada qator tizimli muammolar mavjud. Bu masalalar kelgusida birinchi navbatda hal etilishi lozim deb o‘ylayman.



YANGI QONUN KUCHGA KIRMOQDA

UNDA BOLALARNI
ZO‘RAVONLIKDAN
HIMOYA QILISH
BORASIDA MUHIM
NORMALAR
BELGILANGAN

>>> 3–bet


O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni barcha turdagi zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi yangi qonuni 2025–yil 15–maydan kuchga kiradi. Adliya vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda UNICEF hamkorligida ishlab chiqilgan qonun (O‘RQ–996–sonli) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik shakllari ro‘yxatini kengaytirib, ularning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77–moddasida belgilangan “Davlat bolalarni har tomonlama himoya qiladi” degan asosiy tamoyilga asoslangan qonun bolalarga nisbatan zo‘ravonlik turlarini aniq belgilab beradi.

“YASHIL ENERGETIKA” – TARAQQIYOT DRAYVERI

>>> 3–bet

S o‘nggi yillarda O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari–chi energiya manbalari–ga asoslangan “yashil energetika” sohasi tubdan rivojlanib, keng ko‘lamli islohotlarga zamin yaratdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan strategik siyosat natijasida mamlakatda boshlangan energetika tizimi diversifikatsiyasi nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ekologik xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

2021–yilda Navoiy viloyatining Karmana tumanida 100 megavattli quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilishi “yashil energetika” sohasida yangi davrni boshlab berdi. Bu inshoot orqali yiliga 80 million kub metr tabiiy gaz taqdim etiladi, 160 ming tonna zararli gazlar atmosferaga chiqarilishining oldi olinmoqda. Bu esa O‘zbekistonning ekologik mas‘uliyatli davlat sifatidagi pozitsiyasini yaqqol namoyon etadi.



OXIRGI 1 YIL

MAHALLAMIZ
FARZANDLARI
HAYOTI BUTKUL
O‘ZGARDI



>>> 3–bet

Bugun ortga nazar tashlasam, bir yil avvalgi hayotim, holatim ko‘z oldimda jonlanadi. O‘sha paytda ishsiz edim, qanday yo‘l tutishni, ishni nimadan boshlashni bilmasdim. Ammo bir narsa aniq edi: yuragimda Vatanga muhabbat, xalqimga foydali bo‘lish ishtiyoqi bor edi. Shu tuyg‘ular meni harakatga undadi, orzularimni maqsadga aylantirdi.

Bugun men – yoshlar yetakchisi–man. Bu lavozim nafaqat mas‘uliyat, balki imkoniyatlar eshigini ochdi. Prezidentimiz tashabbusi, yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar tufayli ko‘plab yoshlar o‘z yo‘lini topmoqda. Joriy yilning o‘zida mahallada yashayotgan 1325 nafar yoshdan 80 nafarining bandligi ta‘minlandi va jamiyatda o‘z o‘rnini egallab bormoqda.



TALABAGA PSIXOLOG KERAK(MI?)

>>> 4–bet

S o‘nggi vaqtlarda o‘z joniga qasd qilayotgan, turli jinoyatlar bilan qo‘lga olinayotgan talabalar haqida xabarlar tez–tez quloqqa chalinmoqda. Masalan, 27–aprel kuni Buxoroda 20 yoshli talaba o‘z joniga qasd qildi. Bir kun o‘tib shu universitetning yana bir 20 yoshli talabasi o‘zini osib qo‘ydi. 2024–yil dekabr oyida ham Buxoro viloyatida 23 yoshli talaba qiz institut yotoqxonasida sirka ichib vafot etgandi. Joriy yil yanvar oyida esa Farg‘ona viloyati OTMLaridan birida 20 yoshli talaba qiz o‘zini 3–qavatdan tashlab joniga qasd qilgan... Giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan qo‘lga olinayotgan talabalar soni ham ortmoqda.

Talabalik “oltin davr” emasmidi? Yutuqlarga erishayotgan, o‘z bilimi orqasidan dunyo yuzini ko‘rayotgan talabalar ko‘p. Ammo kun mavzusiga aylangan talabalar ham shunday natijaga erishishi mumkin edi–ku!



GAZETA O‘QISH – MADANIY EHTIYOJMI YOKI UNUTILAYOTGAN QADRIYAT?

>>> 4–bet

Zamonaviy insonning ertalabki odati qanday? Bir piyola choymi yoki kunning ilk yangiliklari bilan tanishish? Ko‘pchilik uchun bu savolga javob aniq: ko‘z ochilishi bilan qo‘l telefonga cho‘ziladi. Bugun shunday zamonada yashayapmizki, yangiliklar, axborot va ma‘lumotlar oqimi nafaqat tez, balki haddan ortiq ko‘p. Bunday holatda insonga kerakli va ishonchli ma‘lumotni tanlab olish, fikr yuritish va mushohada qilish tobora murakkablashib bormoqda. Aynan shunday muhitda gazeta o‘qish nafaqat madaniy ehtiyoj, balki zarurat sifatida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MAHALLA YOSHLARI BILAN ISHLASH MODELI



Davomi.
Boshlanishi
1-sahifada.

Xalilillo ERGASHEV

“YILNING ENG NAMUNALI MAHALLADAGI YOSHLAR YETAKCHISI” TANLOVNING VILOYAT BOSQICHIDA 2-O’RINNI EGALLADI. YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOMONIDAN 2025-YILNING 1-CHORAGI YAKUNLARI BO’YICHA “TOP – 100” YETAKCHI SAFIDA E’TIROF ETILDI.



MUAMMODAN IMKONIYATGA

Yetakchi o’z faoliyatini aniq reja asosida, tahliliy yondashuv bilan boshladi. U mahalladagi yoshlarni ijtimoiy holati va qiziqishiga ko’ra toifalarga ajratdi:

- oliy va o’rta maxsus ta’limda o’qiyotganlar;
- ishsiz yoki vaqtincha band bo’lmaganlar;
- sport, san’at, texnika, IT yo’nalishlariga qiziquvchilar;
- ijtimoiy muammolarga ega, oilaviy sharoiti og’ir yoshlar.

Yoshlar bilan alohida suhbatlar tashkil etildi, ehtiyojlar va muammolar o’rganildi. Mahalladagi psixologlar, pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda har bir yosh uchun individual yondashuvli rejalar tuzildi.

Yetakchi har chorakda yoshlar o’rtasida anonim so’rovnomalarni o’tkazadi, ularning qiziqishlari, talab va takliflarini o’rganadi. Natijalar asosida loyihalar doimiy ravishda yangilanadi, takomillashtiriladi.

2025-yilning dastlabki 4 oyida “Yoshlar daftari” orqali 10 nafar yoshning muammosi hal qilindi. Xususan, 2 nafar yosh doimiy ishga joylashtirildi, 3 nafar yoshning kontrakt to’lovi qoplandi, 1 nafar yoshga bir marta lik moddiy yordam ko’rsatildi. 2 nafar yoshning uy-joyi ta’minlandi va qishda yashash uchun zarur mahsulotlar yetkazib berildi. Bu individual yondashuvlar yoshlar ishonchini oshirdi va amaliy natijalar berdi.



Behruz RAJABOV

KELAJAK YOSHLAR KLUBI


Xalilillo Ergashev tashabbusi bilan ijtimoiy tarmoqda “Kelajak yoshlar klubi” nomli sahifa ochildi. Bu sahifada mahalladagi tadbirlar haqida e’lonlar, to’garaklar jadvali, faol yoshlar bilan intervyular, online tanlov va viktorinalar joylashtiriladi.

Shuningdek, Google Forms orqali yoshlar o’rtasida takliflar yig’iladi, muammolar haqida fikr bildirish imkoniyati yaratilgan. Yoshlar faoliyati muntazam surat va video lavhalar orqali yoritilib, ular rag’batlantirilib boriladi.



Mahallaning ko’ngilli yoshlari bilan birgalikda oyiga ikki marta yolg’iz qariyalar, nogironlar va yordamga muhtoj oilalar xonadonlariga boriladi. Bu tashriflar davomida ular uchun uy-ro’zg’or ishlarida yordam beriladi, oziq-ovqat mahsulotlari olib boriladi, shuningdek, suhbat va e’tibor orqali ularning ruhini ko’tarishga harakat qilinadi. Bu yoshlar o’rtasida mehr-oqibat, hurmat va hamjihatlik kabi ijtimoiy qadriyatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

– Bitta xonadonda 3 nafar yosh istiqomat qiladi, – deydi yoshlar yetakchisi. – Ularning oilaboshisi yo’q, onasi esa betob. Bu oilaning sharoiti bilan tanishganimda, birinchi farzand endigina maktabni bitirgan, qo’lda hech qanday hunari yo’q, ukasi va singlisi ham maktabni tamomlash arafasida edi. Ushbu vaziyatda faqat uchalarasidan biriga yordam berishga imtiyoz bor. Nima qilishni bilmay, boshim qotgandi. Ammo tez orada bu muammo-ga yechim topildi. Hamkasblarim bilan maslahatlashib, homiylar orqali uchalar yoshga ko’mak berishga erishdik. Homiylar mablag’lari asosida oilaning uyini ta’mirlab berdik. Dastlab, migratsiyaga ketgan katta farzandni Vataniga qaytarib kasb-hunarga o’qitdik. Hozir mebelsozlik bilan shug’ullanib, ro’zg’or tebratyapti. Homiylar ko’magi bilan bitiruvchi singlisining o’qishga tayyorlanishi uchun 1 yillik to’garak puli to’lab berildi. Ukasi 10-sinfni tamomlayapti. Xohishiga qarab, uni ham kasb-hunarga yo’naltiramiz.



“Yashil” toifa: 445 nafar
“Sariq” toifa: 90 nafar
“Qizil” toifa: 20 nafar

Mahalla drayveri: xizmat ko’rsatish.

So’nggi bir yarim yilda erishilgan natijalar:

250 nafar yosh – to’garakka jalb etildi;
80 nafar yosh – kasb-hunarga yo’naltirildi;
30 nafar yosh – ish bilan ta’minlandi; Mahallada jinoyat sodir etilmadi.
Shuningek, 65 nafar yosh “Ibrat farzandlari” loyihasida ro’yxatdan o’tgan bo’lib, 4 nafari til bilish sertifikatini oldi. 1041 nafar yosh “Muto-laa” loyihasi orqali 1200 dan ortiq kitoblarni o’qidi. 244 nafar yosh “Ustoz Al” loyihasi yordamida zamonaviy kasblarni bepul o’rganmoqda.

YANGI BOSQICHGA YO’L

Xalilillo Ergashevning faoliyati yoshlar bilan ishlashning samarali modeli-ga aylandi. Shakllangan tajriba asosida endilikda yanada kengroq ko’lam-dagi tashabbuslarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bu tashabbuslar mahalla darajasidagi ishlarni tuman, hatto viloyat miqyosida kengaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

“Yoshlar klasteri” tashabbusi. Yoshlarning hunar o’rganishi, ta’lim olishi va ish bilan ta’minlanishi uchun uzviy tizim yaratish ko’zda tutilmoqda. Klaster tarkibida kasb-hunar markazlari, tadbirkorlik asoslari bo’yicha treninglar, mentorlik tizimi, amaliyot joylari va mehnat yarmakalari birgalikda ishlaydi. Bu orqali yoshlar nazariy bilimga ega bo’lish bilan birga, amaliyotda o’zini sinab ko’rish va ishga joylashish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Hududlararo yoshlar almashinu-vi. “Yoshlar – taraqqiyot ko’prigi” shiori ostida boshqa tuman va viloyatlar-dagi faol yoshlar bilan o’zaro tajriba almashish yo’lga qo’yiladi. Yoshlar boshqa hududlardagi yetakchilar faoliyati, loyihalar bilan tanishadi, yangi g’oyalar oladi va o’z faoliyatini boyitadi. Al-mashinuv doirasida seminar-treninglar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar amalga oshiriladi.

Startaplar uchun inkubator markazlari. Kelgusida mahallada yoshlar innovatsion g’oyalarini amaliyotga aylantiradigan startap inkubator markazlarini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Markazlar yoshlar uchun texnologik infratuzilma, mentorlik, grantlar va investorlar bilan bog’lovchi platformaga aylanishi ko’zda tutilgan. Inkubatorlar orqali ijtimoiy, texnologik va ekologik yo’nalishlardagi muammolarni hal etishga qaratilgan g’oyalar ko’llab-quvvatlanadi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV, “Yoshlar ovozi” muxbiri



YOSHLAR BILAN ISHLASHDAGI MUAMMOLAR

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

ULARNI O’Z VAQTIDA HAL ETIB BORISH FAOLIYATIMIZ SAMARADORLIGINI OSHIRADI

Murodbek RAHMON’BERDIYEV, Jizzax viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig’i



Jumladan, “Ishga marhamat” monomarkazi faoliyatidagi cheklovlar. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-sonli “Kambag’al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori asosida Jizzax shahrida faoliyat boshlagan “Ishga marhamat” monomarkazi orqali bugungi kungacha 9 499 nafar tinglovchi kasb-hunar, tadbirkorlik ko’nikmalari va xorijiy tillarga o’rgatilgan. Ayni paytda monomarkazda 788 nafar tinglovchi o’qimoqda. Ularning 522 nafarini (309 nafari xotin-qizlar) yoshlar tashkil etadi.

Biroq monomarkazning viloyatda yagona ekanligi o’qish istagidagi ko’plab yoshlarning oylab navbatda turishiga sabab bo’lmoqda. Hozirgi kunda 1 100 nafar tinglovchi navbatda turibdi, shundan 824 nafari yoshlar.

Mazkur muammoning yechimi sifatida har bir tuman shaharlaridagi korxona va tashkilotlar o’rtasida kadrlarga bo’lgan ehtiyojga qarab, shartnomalar tuziladi; shartnomaga asosan har bir korxona va tashkilot kadrlarga bo’lgan ehtiyojiga qarab monomarkazga zarur mutaxassislarni o’qitish bo’yicha talabnomalar beradi va o’quv kursi xarajatlarini qoplab beradi; o’qitilgan yoshlar esa shartnomada ko’zda tutilganidek va qonunchilikda belgilangan tartibda ishga joylashtiriladi.

Bu harakatlar ham yoshlarning ishga joylashishi, ham xususiy sektor ishtirokini oshiradi. Yoshlar o’rtasida kitobxonlik daryasini ko’tarish. Viloyatning Forish, Yangiobod, Baxmal va G’allaorol tumanlarida yoshlar qiziqishlaridan kelib chiqib ayrim adabiyotlarni o’qish yoki sotib olish uchun tuman yoki viloyat markazlariga borishlariga to’g’ri kelmoqda. Muammoni hal qilish va yoshlarni rag’batlantirish maqsadida mahallada yengil konstruksiyali “Yoshlar kutubxonasi”ni barpo etish va uni zarur adabiyotlar bilan boyitib borish, bunga yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faolini mas’ul etib tayinlash orqali yoshlar o’rtasida kitobxonlikni rivojlantirish mum-

kin. Kutubxona fondini doimiy to’ldirib borishda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo’limlari hamda tuman (shahar) hokimlari mas’ulligini oshirish lozim.

“Yoshlar daftari” faoliyati samaradorligini oshirish. 2024-yildan “Yoshlar daftari”ni muvofiqlashtiruvchi shtatlar Ijtimoiy himoya milliy agentligiga o’tkazilishi natijasida viloyatdagi 13 ta bo’limdagi ish ko’lami oshib, vazifalarni o’z vaqtida bajarish qiyinlashmoqda. Ish sifatli va o’z vaqtida bajarilishi uchun xodimlarda yuklama me’yorida bo’lishi lozim. Agentlikning shahar va tuman bo’limlariga qo’shimcha shtat ajratish orqali vazifalarni sifatli bajarishga erishish mumkin.

Harbiy xizmatga qiziqishni kuchaytirish. Davlatimiz rahbari joriy yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik Kengashining navbatdagi kengaytirilgan yig’ilishida “Bir nafar harbiy xizmatchi o’rniga uch nafar zaxira yaratish lozim” deya ta’kidladilar.

Harbiy xizmatni o’tagan yoshlarga davlat tashkilotlariga ishga kirishda ARGOS tizimi orqali ustunlik berish, xizmat vaqtida oylik maoshini saqlab qolish tizimini joriy etish lozim deb o’ylayman. Bu orqali ham yoshlarni harbiy xizmatni o’tashga keng jalb qilishda sezilarli natijadorlikka erishiladi.

Bu Oliy ta’lim muassasalariga kira olmagan yoki ayni paytda o’qimayotgan, ishsiz yoshlarning ham harbiy xizmatga qiziqishi o’rtasiga turtki bo’ladi va bandligi ta’minlanadi.

Yosh dehqonlarni agrotexnika bilan ta’minlash. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-153-sonli qarori asosida yer maydonlari ajratilgan dehqon yoshlarni yer maydonlariga ishlov berishda qiynayotgan muammolardan biri bu agrotexnika masalasi. Yerga ishlov berish uchun mavsumda texnika topish juda qiyin. Yer ajratilgan dehqon yoshlar mavsum paytida texnika yetishmasligi tufayli yerga o’z vaqtida ishlov bera olmayapti. Bu esa hosildorlikni keskin kamaytiradi.

Taklifim, har bir mahallaga lizing asosida zamonaviy mini traktorlar va maxsus uskunalarini ajratish lozim. Bu orqali yiliga bir emas, ikki yoki uch marta hosil olish imkoniyati yaratiladi.

Yoshlar bilan ishlashda tizimli yondashuv va har bir toifadagi yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda muammolarni hal qilish mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omildir. Jizzax viloyatidagi mavjud muammolarni bartaraf etish orqali yoshlarning salohiyati ro’yobga chiqadi, iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga keng yo’l ochiladi.

“ZAKOVAT”

– BILIM VA TAFAKKUR MAYDONI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Festival doirasidagi “Zakovat” uch yo’nalishda tashkil etildi. “Talabalar ligasi”da oliy ta’lim muassasalari talabalari, “Talaba-o’quvchilar ligasi”da o’rta maxsus va professional ta’lim muassasalari o’quvchilari, “O’quvchilar ligasi”da esa umumiy o’rta ta’lim, prezident, ijod va fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar o’quvchilari ishtirok etdi.

Respublikaning barcha hududlarini qamrab olgan liga o’yinlari quyidagi ko’lamda o’tkazildi:

- o’quvchilar ligasi – 133 ta hududda;
- talaba-o’quvchilar ligasi – 26 ta hududda;
- talabalar ligasi – 21 ta hududda.

Intellectual musobaqalar yoshlarning nafaqat bilim va tafakkurini, balki jamoada ishlash va tezkor fikrlash ko’nikmalarini ham mustahkamlashga xizmat qilaypti.

“YASHIL ENERGETIKA” – TARAQQIYOT DRAYVERI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Energiya manbalari ni diversifikatsiya qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni muvofiqlashtirish orqali O'zbekiston global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda ham faol ishtirok etmoqda. 2023-yildagi tah-

“
MUSTAQIL ENERGIYA
ISHLAB CHIQUVCHI
SUBYEKTLAR SONI
24 TAGA YETDI.

2024-yilda 3,5 gigavattli qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushirilib, umumiy ishlab chiqarish hajmi 10 milliard kilovatt soatga yetdi. Bu ko'rsatkich 5 million xonadonning yillik energiya ehtiyojini qoplashga teng keladi. Shuningdek, 6,5 million tonna zararli gazlar chiqishining oldini olishga xizmat qildi. Bu esa “yashil iqtisodiyot” g'oyasi O'zbekistonda amaliy mazmunga ega ekanini isbotlaydi.

2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi bu boradagi siyosatni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu tashabbus orqali nafaqat tabiiy resurslarni tejash, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega “yashil loyiha”larni yo'lga qo'yish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirish rejalashtirilmoqda.

Energetika sohasini sanoat, ta'lim va innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirish ham strategiyaning muhim qismi hisoblanadi. Ilg'or muhandislik maktablari, dual ta'lim tizimi, mahalliy quyosh panellari va transformatorlar ishlab chiqarilishi orqali sohaga ichki imkoniyatlar jalb qilinmoqda. Shuningdek, Qirg'iziston va Tojikistondagi GESlarni birgalikda qurish, Saudiya Arabistoni, Ozarbayjon va Qozog'iston kabi davlatlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalari energetika eksporti salohiyatini oshirmoqda.

Yana bir muhim jihathat – xususiy sektorning faol ishtiroki. So'nggi besh yildahaga 20 milliard dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb qilinib, mustaqil energiya ishlab chiqaruvchi subyektlar soni 24 taga yetdi. 2030-yilgacha yana 19 gigavatt “yashil quvvat” barpo etilishi va qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi, xalqaro hamkorlik, ilg'or texnologiyalar va xususiy sektor ishtirokining kengayishi evaziga mamlakatimiz energiya sohasida mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Robiyabonu G'AYBULLAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi



TALABALAR FESTIVALI

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish davlat siyosati darajasidagi muhim masala. Chunki bu e'tibor yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qamab yaratadi.

Shu kunlarda yurtimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida “Talabalar festivali” o'tkazilmoqda. Loyiha doirasida turli ta'lim muassasalarida uchrashuvlar, mahorat darslari va o'quv-seminarlar tashkil etilmoqda.

Festivalning asosiy maqsadi – yoshlarning ijodiy va intellektual faoliyatini rivojlantirish, madaniy va ilmiy almashinuvni qo'llab-quvvatlash, ilm-fan va innovatsiyalarni keng omalalashtirish, liderlik va tashabbuskorlikni rag'batlantirishdir.

Festival doirasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Milliy tadqiqot universitetida “Qalqon” jamoatchilik guruhi haqida yoshlarni xabardor qilish, guruh hisoboti bilan tanishishga qaratilgan “Biz bor joyda jinoyat yo'q – biz bor joylar xavfsiz hudud” shiori ostida o'quv-seminari tashkil etildi.



O'quv-seminarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari Sarvarxon Buzrukxonov, Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Dilnoza Kattaxonova, “Qalqon” jamoatchilik guruhi a'zolari va talabalar ishtirok etdi.

Mudofaa vazirligi harbiy orkestri sadolari ostida boshlangan o'quv-seminarni institut rektori Bahodir Mirzayev ochib berdi.

“Qalqon” – jamiyatga hissa qo'shish maktabi. Uch yildan buyon faoliyat olib borayotgan jamoatchilik guruhi Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari hamkorligida tashkil etilgan bo'lib, asosiy maqsad yoshlar bilan hamkorlikda harbiy-jamoatchilik ishlarini amalga oshirish, ularning iqtidorini namoyish qilish, talabalar orasida tinchlik va tartibni saqlash, mayda bezorilikning oldini olish kabi vazifalardan iboratdir.



ZARGARLIK KUTUBXONASI

Shahrisabz shahridagi Zargarlik mahallasi yoshlar yetakchisi Mohinur Boboqulova tashabbusi bilan zamonaviy kutubxona tashkil etildi.

Kutubxona mahalladagi bo'sh turgan binoda homiylik mablag'lari yordamida foydalanishga topshirildi. Mazkur kutubxona bugungi kunda 400 dan ortiq turli yo'nalishdagi bosma adabiyotlar va elektron kitoblar jamlanmasiga ega. Bu bilim maskanidan nafaqat yoshlar, balki 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan barcha faol foydalanmoqda. Kutubxona kitobxonlar ehtiyojidan kelib chiqib, badiiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop kitoblar, fan-texnika, psixologiya va hayotiy maslahatlar to'plamlarini o'z ichiga olgan.

Mohinur Boboqulovanning so'zlariga ko'ra, kutubxonani yanada rivojlantirish, shu yerdaham yoshlar uchun seminar, ijodiy uchrashuvlar, kitobxonlik kechalari, tanlovlar o'tkazish ko'zlangan.

Kutubxonaning tashkil etilishida mahalla faollari, ko'chasaradorlarining hisssasi katta bo'ldi. Ular kitob to'plash, kutubxonani ta'mirlash va jihozlash ishlarida faol ishtirok etdi. Bu tashabbus mahallada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni ilm-fanga oshno etishda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

“BIZ BOR JOYDA JINOYAT YO'Q”

– Bu festival bir vaqtning o'zida nafaqat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar uchun, balki talaba bo'lish istagidagi abituriyentlar uchun ham foydali. Chunki festivalda o'quvchi-yoshlar oliy o'quv yurtlari to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lishadi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Dilnoza Kattaxonova.

Seminarda “Qalqon” jamoatchilik guruhi faoliyati haqida talaba-yoshlarga tushuncha berildi, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar natijalari yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi.

– “Qalqon” jamoasiga qo'shilganimga bir yildan oshdi, – deydi guruh faollaridan biri Farangiz Egamberdiyeva. – Biz talabalar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish uchun turli o'quvlar tashkil etamiz, tengdoshlarimizga to'g'ri yo'nalish ko'rsatishga harakat qilamiz.

Tadbirda Mudofaa vazirligining madaniy dasturlari namoyish etildi.

Seminar yakunida “Qalqon” jamoatchilik guruhining bir guruh faol a'zolari taqdirlandi.

Iroda JO'RAYEVA



UNDA BOLALARNI ZO'RAVONLIK HIMOYA QILISH BORASIDA MUHIM NORMALAR BELGILANGAN

Endilikda jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'rvonlik turlariga qo'shimcha ravishda g'amxo'rlik qilmaslik, ekspluatatsiya va bulling holatlari ham zo'rvonlik sifatida qonuniy asosda mustahkamlandi. Qonunda keltirilgan ta'rifga ko'ra, “Bolaning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa qonuniy manfaatlariga tajovuz qiluvchi yoki daxl qiluvchi, qasddan sodir etilgan har qanday harakat yoki harakatsizlik zo'rvonlik hisoblanadi”. Bu esa zo'rvonlik faqat faol harakatlar bilan emas, balki beparvolik (harakatsizlik) shaklida ham ro'y berishi mumkinligini ta'kidlaydi. Qonunda zo'rvonlik shakllari quyidagicha tasniflanadi.

Jismoniy zo'rvonlik – bolaga tan jarohati yetkazish, sog'lig'i yoki hayotiga xavf tug'diruvchi holatlarda unga yordam ko'rsatmaslik kabi harakatlardir.

Ruhiy zo'rvonlik – bolaning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar yoki harakatsizlik, masalan, tahqirlash, haqorat qilish, doimiy kamsitish.

Jinsiy zo'rvonlik – bolalarning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi har qanday faoliyat yoki shahvoniy harakatlardir.

G'amxo'rlik ko'rsatmaslik – otana, ularning o'rnini bosuvchi shaxs yoki boshqa mas'ul shaxs tomonidan bolaning asosiy ehtiyojlarini qondirmaslik holatlari.

Ekspluatatsiya – bolalarni g'ayri-qonuniy, axloqsiz yoki ijtimoiy xavfli faoliyatga undash, majburlash, mehnat yoki jinsiy ekspluatatsiya qilish, odam savdosi.

Bulling – bir yoki bir nechta bolalar tomonidan boshqa bolaga nisbatan ruhiy, jismoniy zo'rvonlik, tah-

qirlash, qo'rqitish, kamsitish, sha'n va qadr-qimmatni poymol qilish harakatlari.

O'zbekiston Respublikasining “Bolalarni barcha turdagi zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi yangi qonunning 32-moddasiga ko'ra, zo'rvonlik sodir bo'lgan yoki tahdidi mavjud holatlarda jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilish maqsadida himoya orderi joriy etiladi. Bu rasmiy hujjat orqali zo'rvonlarga nisbatan muayyan cheklavlar qo'yiladi. Himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan tegishli holat aniqlangandan so'ng 24 soat ichida rasmiylashtiriladi va 30 kun amal qiladi. Sud qarori bilan bu muddat 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin. Orderning asosiy vazifasi – jabrlanuvchi bilan zo'rvon o'rtasida aloqa o'rnatilishining oldini olish.

Order doirasida zo'rvonga ayrim joylarga yaqinlashmaslik, tibbiy muolajadan o'tish yoki psixologik xizmatlardan foydalanish majburiyati yuklanishi mumkin. Bu esa qayta zo'rvonlik sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida bullingga oid holatlar tez-tez uchrayotgani bois qonunning 44-moddasida ta'lim muassasalarining majburiyatlari aniq ko'rsatib o'tilgan:

- ta'lim dasturlari bolalar o'rtasida zo'rvonlikka qarshi immunitet hosil qilishi kerak;
- maktab va boshqa ta'lim muassasalarida zo'rvonlikning oldini olishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi, treninglar o'tkazilishi, psixologik maslahat xonalari faoliyati yuritishi lozim.

Mazkur treninglar xalqimizning qadimiy axloqiy qadriyatlarini asosi-

da tashkil etilishi maqsadga muvofiq, chunki qadriyatlarimizda inson sha'ni muqaddas deb qoraladi, har bir inson boshqasiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uni zo'rvonlik emas, balki mehr bilan qo'llab-quvvatlashi kerakligi targ'ib qilinadi. Qonunning mazkur moddasida ta'lim beruvchilarga pedagogik jarayon davomida bolaga nisbatan intizomiy chora sifatida har qanday zo'rvonlikni qo'llash qat'iyan man etilgani alohida ta'kidlanadi.

Qonunning 6-moddasida bolalarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish borasida jamiyatning o'ri alohida ta'kidlab o'tiladi. Unda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jamiyatda bolalar zo'rvonligiga qarshi murosasiz muhit yaratish zarurligi qayd etilgan.

Bolalarni zo'rvonlikdan himoyalash samaradorligi faqat qonunchilik mexanizmlari orqali emas, balki keng jamiyat ishtiroki bilan ta'minlanishi mumkin. Bugungi kunda OAV va blogerlarning faolligi tufayli ko'plab zo'rvonlik holatlari fosh qilinmoqda. Bunday jamoatchilik nazorati vositasi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir fuqaro, ayniqsa, ota-onalar, o'qituvchilar va kattalar yosh avlodni himoya qilishda faol, zo'rvonlikka qarshi kurashda murosasiz bo'lishi lozim. Zero, bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish ertangi kun, kelajak poydevorini mustahkamlashdir.

Shu bilan birga, bolalarni himoya qilishga qaratilgan tadbirlar shartli yoki bir martalik bo'lmazligi kerak. Tizimli yondashuvlar, profilaktika ishlar, maktablarda muntazam o'tkaziladigan treninglar, psixologik xizmatlarni kuchaytirish orqali barqaror natijaga erishish mumkin.

Visola TO'LQINOVA,
TDYU talabasi

OXIRGI 1 YIL

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

MAHALLAMIZ FARZANDLARI HAYOTI BUTKUL O'ZGARDI

Ayniqsa, Prezidentimiz ilgari surgan “Besh muhim tashabbus” har bir yoshing hayotiga bevosita ta'sir qilmoqda:

1. Madaniyat va san'atga jalb qilish. Mahallada yoshlar ishtirokida teatr, kitobxonlik, qo'shiq va raqs kechalari o'tkazilmoqda. Bu tadbirlarga 500 ga yaqin yoshlar qamrab olinayapti.

2. Jismoniy tarbiya va sport. 800 nafarga yaqin yosh futbol, voleybol, stol tennis va boshqa sport turlari bilan faol shug'ullanmoqda.

3. Axborot texnologiyalari. Kompyuter savodxonligi, IT o'quv kurslariga qatnashayotgan yoshlar soni 200 nafardan oshdi.

4. Kitobxonlikni oshirish. Mahallamiz kutubxonasiga yangi adabiyotlar olib kelinib, “Kitobxon yoshlar” klubi yo'lga qo'yildi. Natijada 600 nafardan ortiq yosh o'zi qiziqqan kitoblarni o'qimoqda.

5. Hunarmandchilik va bandlik. Tikuvchilik, duradgorlik, sartaroshlik kabi kasblar bo'yicha o'quv kurslari ochildi va 100 ga yaqin yoshlar bandligi ta'minlandi.

Bundan tashqari, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar”, “Yoshlar akademiyasi”, “Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” kabi tashabbuslar orqali yuzlab yoshlar o'z biznesini boshladi, ilm olish, kasb o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Men bugun ular bilan yonma-yon ishlayapman. Har bir yoshning yutug'i – mening yutug'im. Ular o'ziga ishonib boshlagan sari, Vatanimizga ishonch, mehr, sadoqat kuchaymoqda.



Vatanparvarlik – faqat so'z emas. Bu har kuni tinmay xizmat qilish, xalqimiz farovonligi uchun harakat qilish, har bir yurtdoshimizning orzusiga sherik bo'lishdir. Biz kelajak sari dadil qadam tashlayapmiz. Chunki bu Vatan bizniki. Uning kelajagi esa biz, yoshlar bilan bog'liq.

Zuhridin MO'YDINOV,
Buloqboshi tumanidagi Sharq yulduzi mahallasi yoshlar yetakchisi



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Do'stlaridan ajralib, o'zgarib qolgan talabani payqash, muammolarini o'rganish kimning vazifasi o'zi? Farzandidan uzoqdagi ota-onaningmi yoki hali tanishib ham ulgurmagan, borligi ham bilim-maydigan universitet psixologining vazifasimikan? Yoki shunchaki hammasiga o'zi aybdormi? Chunki u voyaga yetgan shaxs. Kimdir nazorat qilishi shart emasdir...

Yuqoridagi kabi xabarlarining deyarli barchasida "...hodisa yuz berganidan so'ng talabalarning psixologik holati o'rganilmoqda" deb keltirilgan. Talabalarining psixologik holatini o'rganish uchun shunday hodisa yuz berishini kutish kerakmi?

AKSARI 20 YOSHLI...

Hodisalar aksarda 20 yosh atrofidagi talabalar bilan sodir bo'lgan. Garchi bu ulg'aygan davrdek tuyulsa-da, psixologlar fikricha, bu yoshda o'sish va shaxsiy shakllanish jarayoni davom etadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, o'smirlik davri 10 yoshdan 19 yoshgacha oraligni qamrab oladi, ba'zi holatlarda esa 24 yoshgacha cho'zilib ham mumkin. Ya'ni talabalik yillarining dastlabki bosqichi ham o'smirlikning psixologik o'tish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda yoshlar jahli tez, beqaror va ishonuvchan bo'lib qoladi. Shu sabab turli muammolarga duch keladi.

Talaba bo'lib, ota-onadan uzoqlashish, mustaqil yashash, o'ziga javobgar bo'lish kabi omillar yosh organizmga kuchli psixologik bosim bo'lishi mumkin. Bu esa stress, xavotir, yolg'izlik va tushkunlikka sabab bo'ladi. Ayrim talabalar uchun yangi do'stlar orttirish, guruhga moslashish yoki o'zini anglash murakkab kechadi. Agar bu holatda yetarlicha ijtimoiy yoki psixologik yordam ko'rsatilmasa, ularning bo'shliqqa tushib qolish ehti-moli yuqori bo'ladi.

QARASHLAR MOS KELMAYDI

O'smirlik davrida ota-ona va farzand o'rtasidagi qarashlar turlicha bo'ladi. Bu esa murosasizlik, tushunmovchilik va qo'llab-quvvatlovning yetishmasligiga olib keladi. Ayniqsa, talabalik yillarida ota-onaning nazorati zaiflashgan, ammo ularning mehriga, e'tiboriga ehtiyoj kuch-

li bo'lishi holatni murakkablashtiradi. Nafaqat ota-ona bilan kelishmovchilik, baholash tizimi, ta'limdagi bosim ham talabalarining ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi muhitga moslashishning qiyin kechishi va tortinish, natijada o'z fikrini to'liq ifoda eta olmaslik, baholarning pasayib ketishi o'ziga bo'lgan ishonchni tushiradi.

IQTISODIY MUAMMOLAR

Talabalarining eng og'riqli muammolaridan biri – moddiy yetishmovchilik. So'nggi yillarda talabalar orasida bu asosiy stress omillaridan biriga aylangan. Turar joy, oziq-ovqat, yo'l haqi, o'quv qurollari uchun pul topish ko'plab talabalarni ruhiy jihatdan qiynaydi. Bundan tashqari, ayrim tengdoshlarining yashash sharoiti, kiyinish uslubi, yeb-ichish va foydalana-yotgan eng so'nggi rusumdagi gajet va avtomobillarini ko'rib, o'zi bilan solishtirish odati shakllanadi. Xuddi shunday ijtimoiy tarmoqlardagi ideal tasvirlar ham solishtirish orqali kuchli stress holatini keltirib chiqaradi. Ba'zida bu muammolardan charchagan talaba o'qishdan soviydi yoki ijtimoiy hayotdan chekinadi.

SALBIY ODATLAR

O'ziga ishonchi pasayganidan so'ng aksariyat o'smirlar yolg'izlikni afzal bilib, do'stlaridan ajralib qoladi. Bu holat vaqt o'tishi bilan zararli odatlar yoki turli guruhlariga kirib qolish xavfini kuchaytiradi. Chunki bu davrda ular juda ishonuvchan bo'ladi. Dardini tushungan va uni boricha qabul qilgan guruhga tez qo'shiladi. Afsuski, u tanlagan do'stlar davrasida har doim ham sog'lom muhit qasd qilish holati kuchayadi.

PSIXOLOGGA MUNOSABAT O'ZGARISHI KERAK

Faqt o'lim holati aniqlangan OTMlarda emas, balki O'zbekiston bo'ylab barcha ta'lim maskanlarida

barcha xodimlar va o'quvchi-talabalarining psixologik holati vaqti-vaqti bilan o'rganilishi kerak. Ishning avvalida bu biroz qiyin kechishi mumkin. Chunki aholi orasida psixolog tushunchasi salbiy ko'rinishda shakllangan. "X" va "Y" avlodning ko'pchiligi psixologga faqat ruhiy kasallar murojaat qiladi deb hisoblaydi. Ayni damda esa o'z joniga qasd qilayotgan yoshlar aynan shu avlod vakillarining farzandlari. Yoshlar fikrini o'zgartirish va ko'ngliga yo'l topish uchun avvalo ota-onalarning qarashlarini o'zgartirish lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarda ayrim qo'sh-tirnoq ichidagi psixologlar ko'payib borayotgani va insonlarga o'zlari bilmagan holda salbiy ta'sir qilayotgani sir emas. Avvalo psixolog kim va uning vazifasi nima, degan savolga aniq va tushunarli javob berilishi lozim. Shundan so'ng u insonlarga qanday yordam bera olishi haqida chuqur tushunchalar berilsa, psixologlar-ga ishonch shakllanishi mumkin. Demak, ta'lim muassasalaridagi psixologlar bevosita ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi muhim hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda psixologlarga alohida e'tibor beriladi. Hatto har bir oilaning shaxsiy psixologi bor. Masalan, Kanadada psixologlar nafaqat yuqori talabga ega, balki 2021-yildan boshlab Kanadaning eng yuqori maoshli kasblaridan biriga aylandi. U yerda asosan psixologlar tadqiqot, amaliyot va ta'lim orqali odamlarning fikrlashi, hissiyotlari va o'zini tutishi bilan bog'liq keng ko'lamli sohalarida ishlaydi.

O'zbekistonda-chi? Ta'lim muassasalarida psixologlar qanday vazifalarni bajaryapti, o'quvchi-talabalarining psixologik holatini qanday o'rganmoqda?

OTM PSIXOLOGLARI TALABALAR BILAN ISHLAYDIMI?

Maktablarda hech qachon javobi e'lon qilinmaydigan, natijasi deyarli sezilmaydigan psixologik testlar o'tkaziladi. Universitetda esa shu ham yo'q. "Universitetlarda psixolog bormi? Agar bo'lsa, u talabalar bilan qanday ishlayapti?", degan savolga javob topish uchun talabalar bilan kichik so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomada asosan 18-23 yosh oralig'idagi poytaxtda tahsil olayotgan talaba yoshlar ishtirok etdi.

Natijaga ko'ra, qatnashuvchilarning 11,8 foizi tahsil olayotgan OTMda umuman psixolog yo'q ekanini bildirgan. 47,1 foizi esa shunchaki psixolog borligidan xabardor, ammo uni tanimaydi. Qolgan 41,2 foiz qatnashuvchi ta'lim olayotgan universitet psixolog o'z faoliyatini to'liq amalga oshiradi. Bulardan 11,8 foizi elektron so'rovnomalarda, 23,5 foizi jonli suhbat, 17,6 foizi faqat o'zini yomon his qilayotgan talabalar bilan ishlaydi va bu holatda talabalar o'zlari murojaat qiladi. Ammo umuman talabalar bilan ishlamaydigan psixologlar va ularning nima ish bilan shug'ullanayotganidan bexabar psixologlar ham bor. Qatnashuvchilarning deyarli 50 foizi shunday fikrda.

"OTMda psixolog qanchalik kerak deb o'ylaysiz?" degan savolga 100 foizlik natija bilan "Psixolog – eng muhim kadr" degan javobni oldik.

Sarvinoz KOILOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



XORIJDA O'QISH

IMKONIYATLARI KENGAYMOQDA

Prezident Farmoniga (PF-77, 2025-yil 5-may) asosan "El-yurt umidi" jamg'armasi qayta tashkil etilib, endi u Prezident huzuridagi istiqbolli kadrlarni tayyorlovchi muassasa sifatida faoliyat yuritadi. Jamg'arma iqtidorli yoshlarni aniqlab, ularni xorijga yo'naltiradi, o'qishni tugatgach esa ishga joylashish va ijtimoiy hi-moya masalalarida ko'maklashadi.

Strategik tashkilotlar ehtiyojidan kelib chiqib, 2025-yil 1-sentabrdan maqsadli stajirovka dasturi yo'lga qo'yiladi. Zarur hollarda xorijiy tilni o'rganish uchun sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga, bakalavriat, magistratura va doktorantura

bosqichlarida tahsil olish uchun "El-yurt umidi" stipendiya siyosati joriy etiladi. Tanlov test va suhbat asosida o'tkaziladi.

Xalqaro reytingdagi bilim yurtlariga o'qishga kirgan yoshlarga esa ayrim hollarda tanlovsiz stipendiya beriladi. Jumladan, dunyoning TOP-100 bilim yurtiga to'liq grant asosida o'qishga kirganlarning barcha xarajatlari; TOP-300 talikdagi bilim yurtlariga kirganlarning xalqaro transport va turarjoy xarajatlari qoplanadi. TOP-20 bilim yurtlarining bakalavriatiga kamida 50 foizlik grant asosida kirgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktab bitiruvchilari ham tanlovsiz stipendiya olish huquqiga ega bo'ladi.

GAZETA O'QISH

– MADANIY EHTIYOJMI YOKI UNUTILAYOTGAN QADRIYAT



BOSMA NASHRLAR – AXBOROTNING OG'IR VAZNLISI

Afsuski, bugungi jamiyatlarda "makulatura" so'rasangiz, qo'lingizga gazeta yoki jurnal tutqaziladigan darajaga kelib qoldik. Bu esa matbuot nashrlariga qiziqishning susaygani, ijtimoiy ongning asta-sekin raqamli olamga ko'chib borayotganidan dalolat beradi. Ammo bu holatni ijobiy deb bo'lmaydi. Mutaxassislar fikricha, inson miyasi axborotni qog'ozdagi manbalardan – gazeta, jurnal va kitoblardan elektron doska va monitorlarga qaraganda samaraliroq qabul qiladi. Bosma nashrlar ko'zga zarar yetkazmaydi, ularni saqlab qo'yish va yana qayta mutolaa qilish imkoniyati mavjud. Eng muhimi, har qanday gazeta bu – tarix.

GAZETANING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOTI

Gazeta ilk bor miloddan avvalgi Rimda rasmiy e'lonlar shaklida paydo bo'lgan. Keyinchalik Yuliy Sezar tomonidan "Akta diurna", ya'ni "Kun voqealari" nashri joriy qilingan. XVI asrda esa Faggerslar sulolasi ishonchli yangiliklar tizimini yaratgan. Venetsiyada gazetani o'qish uchun odamlar gadzette (mayda tanga) to'lagan. Bu so'z keyinchalik "gazeta" atamasiga asos bo'lgan. 1663-yilda Londonda "Informator" gazetasi muntazam nashr etila bosh-

lagan bo'lsa, 1690-yilda Amerikaning ilk gazetasi – "Jamoat hodisalari" bosilgan. Gazeta 1690-yilda Bostonda chiqqa boshlagan, ammo ko'p o'tmay koloniya gubernatori buni to'xtatgan. Benjamin Franklin 1729-yildan 1765-yilgacha "Pensilvaniya gazetasi"ni boshqargan. Hozirgacha nashr etilayotgan eng nufuzli gazetalardan biri 1785-yilda "The Daily Universal Register" nomi bilan paydo bo'lgan Londondagi "Times" gazetasidir.

Tarix shuni ko'rsatadiki, bosma axborot har doim inson ongi-ni uyg'otish va jamiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

MILLIY MATBUOTIMIZ TARIXI VA BUGUNGI HOLATI

Yurtimizda milliy gazetachilik tarixi 1906-yilda chop etilgan "Taraqqiy" gazetasi bilan boshlangan. Ismoil Obidiy boshchiligidan nashr etilgan bu gazeta o'zbek jadidchiligi-ni ilk bosqichi sifatida tarixda qolgan. Uning sahifalarida mustamlakachilik siyosatiga qarshi dadil maqolalar, milliy uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari bilan to'la materiallar chop etilgan. "Taraqqiy" nafaqat ommaviy axborot vositasi, balki millatning uyg'onish harakatining ilk timsoli bo'lgan. 2024-yil boshida chop etilgan "Jadid" gazetasi ham ana shu g'oyaviy merosning davomidir. Bu nashr ma'rifatparvar bobolarimiz hayoti va faoliyatini yoritishga xizmat qilmoqda.

BUGUN BIZ NIMANI YO'QOTMOQDAMIZ?

Internetning tezkorligi, ko'p hollarda ishonchligi va chuqurligi bilan qamrab olinmaydi. Unda yolg'on, tahrirsiz va asossiz axborot ko'p. Smartfonlar orqali tarqalayotgan reklama va manipulyativ kontent insonni chalg'itadi, ongini soxtaliklar bilan to'ldiradi. Bu holat ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Gazeta esa har doim tekshirilgan, mas'uliyatli, chuqur tahliliy yondashuvdagi maqolalar bilan ajralib turadi. Gazeta qo'pollik, shovinizm, shaxsiyatga tegishni hazm qilmaydi. Uning sahifasidagi har bir so'z muallif javobgarligi ostidadir.

Nega yana gazeta o'qishimiz kerak?

Gazeta hech qachon televideniye, telefon yoki internetga raqobatchi bo'lmagan. Uning vazifasi o'ziga xos: tarixni yozib borish, tahlil qilish, mushohada uyg'otish. Gazeta o'qigan kishi fikr yuritadi, so'zga e'tibor beradi, tahrirlangan, tanlangan va muvozanatli axborotni qabul qiladi. Bundan tashqari, gazeta o'qish mutolaa ko'nikmasini shakllantiradi, bu esa – kitobxonlik madaniyatining negizidir. Gazeta o'qimayotgan avlod kitobdan ham uzoqlashmoqda.

Bosma nashrlar, xususan, gazetalar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular faqat raqamli axborot oqimida biroz soya ostida qolib ketgandek. Davlatimiz rahbari tomonidan bosma OAVni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar va yangi gazetalar nashri ijobiy qadmdir. Ammo bu yetarli emas. Ziyolilar, o'qituvchilar, talabalar, ijodkorlar – barchamiz gazetani muntazam o'qib, bu madaniyatni targ'ib qilishimiz lozim. Chunki ma'naviy ehtiyojni pul bilan o'lchab bo'lmaydi. Axborot zamonida axborot sifati, uning ruhiy va madaniy ta'siri avvalgidan-da muhimroq bo'lib bormoqda. Ana shunday davrda gazeta ichki intizom, fikr, ruhiyat va mas'uliyat maktabidir.

Otabek QOBILOV,
TIFT universiteti tarix yo'nalishi talabasi

EKOLOGIK TA'LIM

– BARQAROR KELAJAK ASOSI



Ekologik ta'lim aholi-niing atrof-muhitga nisbatan ongli va ehti-yotkorona munosabatini shakllantirish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash, hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omildir. Bugungi kunda ekologik ta'lim O'zbekiston va butun dunyoda umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda 12-may sanasi Ekologik ta'lim kuni sifatida keng nishonlanadi. Bu sana tabiatni muhofaza qilishda ta'limning tutgan o'rni, uning jamiyat hayotidagi dolzarbligini yodga soluvchi muhim kun hisoblanadi.

Mamlakatimizda ekologik ta'lim tizimiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda 10 mingdan ortiq maktabda 32 mingta ekologik-biologik to'g'arak tashkil etilgan bo'lib, ularga qariyb yarim million o'quvchi jalb etilgan. Shuningdek, 5 ming 200 dan ortiq maktabda "ekologik burchaklar" faoliyat yuritmoqda.

Ekologik ta'limning ilmiy va innovatsion rivojlanishida Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib tashkil etilgan "Green University" alohida o'rin tutadi. Ushbu oliy ta'lim dargohida ekologik muammolarning ilmiy yechimlariga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib boriladi. Universitet tarkibida ekologiya, barqaror rivojlanishni boshqarish, ekologik huquq va ekologiyada raqamlashirish yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan institutlar va kollejlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur muassasa nafaqat ta'lim beradi, balki ilmiy loyihalar hamda xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etadi.

Kelgusida ekologik ta'limni yanada kengaytirish rejalashtirilgan: bolalar bog'chalarida "ekologik koridorlar" tashkil etish, sirkulyar iqtisodiyot bo'yicha dasturlarni joriy qilish, shuningdek, hududlarda "yashil" texnikumlar ochildi mo'ljallanmoqda.

Bu tashabbuslarning barchasi atrof-muhitni himoya qilishga tayyor, ekologik madaniyatga ega yangi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Muhayyo TOSHQORAYEVA,
O'ZA

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Mas'ul muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Navbatchi muharrir:
Shahobiddin LUQMON

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi.
Hajmi – 2 bosma taboaq.
Korxona manzili: Buyuk Turan ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-508, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

